

MA'MURIY HUQUQ MASALALARI: MUNOSABAT, TAHLILI VA YECHIM

Andijon davlat pedagogika instituti "Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi yo'nalishi 3-bosqich talabasi

Muxtarjonov Asadbek

Annotatsiya: *Mazkur maqolada ma'muriy huquqning ahamiyati va bugungi kundagi ushbu huquqning tartibga solinishi to'g'risida fikr yuritilganligi, shuningdek ma'muriy huquqbuzalik qanday yuzaga kelishi va uning yechimi sifatida ma'muriy huquqbuzarlarga jazo qo'llashda qanday qonun va qonun osti hujjatlari qabul qilinganligi haqida bayon etilgan.*

Kalit so'zlar: *ma'muriy huquq, huquqbuzarlik, qonun, qonun osti hujjatlari, Taraqqiyot strategiyasi.*

Аннотация: В данной статье изложены рассуждения о значении административного права и регулировании этого права на сегодняшний день, а также о том, как возникает административное правонарушение и какие законы и подзаконные акты принимаются в качестве его решения при применении наказаний к административным правонарушителям.

Ключевые слова: административное право, правонарушение, закон, подзаконные акты, стратегия развития.

Annotation: *this article describes the importance of administrative law and the consideration of the regulation of this right of today, as well as how an administrative offense occurs and what laws and sub-laws are adopted when applying punishment to administrative offenders as its solution.*

Keywords: *administrative law, infraction, law, sub-legislation, Development Strategy.*

Ma'muriy huquq –o‘z tabiatiga ko‘ra, ommaviy huquqiy (ommaviy huquq –umum (jamoat) manfaatini ta’minlovchi munosabatlarni tartibga soladigan huquq tarmoqlari majmui) fanlar turkumiga taalluqli bo‘lib, o‘zining boshlanish —nuqtasini Konstitutsiyaviy huquqdan o‘zlashtiradi. Boshqacha qilib ta’kidlaganda, Ma’muriy huquq –bu konkretlashtirilgan konstitutsiyaviy huquqdir. Zero, davlat boshqaruvining oliv yuridik asoslari Konstitutsiyada o‘z ifodasini topadi. Va bunday yondashuv aksariyat xorijiy mamlakatlar huquqi va amaliytiga mos, ya’ni asosiy qonunda e’tirof etilgan ustuvor prinsiplar va qoidalarni amaliyotda, ularning ijro hokimiyati organlari tomonidan joylardagi amalga oshirilishini ta’minalashda boshqaruv organlari Oliy qonun va uning asosida qabul qilingan qonunlarga mos ravishda faoliyat yuritadi, davlat siyosatini ta’minalaydi. Keng jamoatchilik muhokamasi natijasida «Harakatlar strategiyasidan –Taraqqiyot strategiyasi sari» tamoyiliga asosan ishlab chiqilgan yettita ustuvor yo‘nalishdan iborat 2022 –2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi va uni «Inson qadrini ulug‘lash va faol mahalla yili»da amalga oshirishga oid davlat dasturi tasdiqlandi. Iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohani modernizatsiyalash, hududlarni har tomonlama rivojlantirish, aholining hayot darajasi va farovonligini yuksaltirish bo‘yicha davlat siyosatini muvaffaqiyatli amalga oshirishga to‘sinqlik qiluvchi qator tizimli muammo va kamchiliklar saqlanib qolmoqda. Ko‘rsatib o‘tilgan tizimli muammolarni bartaraf etish, innovatsion rivojlanishning zamonaviy umumjahon tendensiyalarini hisobga olgan holda davlat boshqaruvi tiziminin samaradorligini oshirish maqsadga O‘zbekiston Respublikasida Ma’muriy islohotlar konsepsiysi qabul qilinib uni amalga oshirish bo‘yicha «Yo‘l xaritasi» tasdiqlandi. Quyidagilar davlat boshqaruvni tizimini tubdan isloh qilish bo‘yicha ma’muriy islohotlarning asosiy yo‘nalishlari va vazifalari sifatida ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatining institutsional va tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish belgilandi. Ijro etuvchi hokimiyat organlarining aniq vazifalari (funksiyalari, vakolatlari)ni va javobgarlik sohalarini belgilash, ishonib topshirilgan tuzilma faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilishning aniq tizimi joriy etildi. O‘zbekiston

Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 5005-sonli «Ichki ishlar organlarining faoliyati samaradorligini tubdan oshirish, jamoat tartibini, fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilishni ta'minlashda ularning mas'uliyatini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risidagi» Farmonida ichki ishlar organlari (IIO) faoliyatini takomillashtirish jarayoniga quydagicha ta'rif berdilar: «O'tgan davr mobaynida ichki ishlar organlari tizimini takomillashtirish borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi. Ayniqsa, ichki ishlar organlarining mahallalarda jamoat tartibini saqlash, fuqarolar xavfsizligini ta'minlash, huquqbuzarliklar profilaktikasi va quyi bo'g'inini rivojlantirish va mustahkamlash jinoyatchilikka qarshi kurashish uchun tashkil etilgan bo'yicha salmoqli ishlar qilindi¹» Ma'muriy huquq tizimi haqida Yevropa davlatlari tajribalariga e'tibor qaratadigan bo'lsak juda katta islohotlarni guvohi bo'ishimiz mumkin. Shuningdek, AQSh ma'muriy huquqida esa ma'muriy qonunchilikning «legislative rules» (normativ (huquqiy) hujjat) va «nonlegislative rules» (ma'muriy instruksiya) degan turlari mavjud. «Nonlegislative rules» o'z ichiga «interpretive rules» va «policy statements»ni oladi². Ma'muriy huquq davlat organlarini tashkil etish, qayta tashkil etish va tugatish tartibi, uning vazifa va maqsadlari, vakolatlari hamda huquqiy maqomining boshqa tomonlarini, tuzilishi va faoliyat jarayonini belgilab beradi. U boshqariluvchi ob'ektlarning aloqalarini tartibga soladi. Ushbu normalar rejalashtirish tartibini, moddiy resurslarni taqsimlash va ish haqini belgilashni mustahkamlaydi. Huquq tizimida huquqni tarmoqlarga ajratish asoslaridan biri –huquqiy tartibga solish uslubidir. Huquqiy tartibga solish uslubi jamiyatdagi mavjud munosabatlarga huquq ta'sirida qo'llaniladigan usul, vosita va yo'llar yig'indisidan iborat. Har qanday huquq tarmog'i singari ma'muriy huquq ham o'zining tartibga solish uslubiga ega. Ma'muriy huquq tartibga solish funksiyasini amalga oshirib, davlat boshqaruvi jarayonidagi

¹ O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 15-son.

² Bernard Schwartz, Roberto L. Corrada Administrative Law: a casebook. Fifth edit. Aspen Publishers. 2001. –P.241 –242.

munosabatlar ishtirokchilarining xulq-atvorini tartibga soluvchi huquqiy vositalar yoki uslublarning muayyan majmuidan foydalanadi³ Davlat boshqaruvi sohasidagi ijtimoiy munosabatlarni huquqiy jihatdan tartibga solish –munosabatlarning barcha ishtirokchilari uchun majburiy bo'lgan xulq-atvor qoidalarini ma'muriy huquq normalarida mustahkamlash yo'li bilan amalga oshiriladi. Bunday qoidalarni o'rnatish orqali davlat boshqaruvi va u bilan bog'liq bo'lgan munosabatlarda vujudga keladigan funksiyalarni amalga oshirishning muayyan huquqiy tartibi yaratiladi. Xulosa ornida shuni aytish mumkinki, ma'muriy huquq ma'muriy munosabatlar bilan bog'liq bo'lgan munosabatlarni o'rganishini ko'rishimiz mumkin. Bugungi kundagi ma'muriy huquqlar uning ahamiyati har birimiz uchun muhim ekanligi, ma'muriy huquqimizni bilishimiz va huquqlarimizning buzilishini oldini olishimiz zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjalari to'plami, 2017 y., 15-son.2.Beketov O.I. va boshqalar.
2. Ma'muriy faoliyat.Umumiy qism: Darslik. -M.: Rossiya Ichki ishlar vazirligining TsOKR, 2019 yil.
3. Bernard Schwartz, Roberto L. Corrada Administrative Law: a casebook. Fifth edit. Aspen Publishers. 2001. –P.241 –242.
4. Egamberdiyev, A., & Poziljonov, J. (2023). JADID MARIFATPARVARLARINING TA'LIM-TARBIYANI ISLOH QILISHDAGI O'RNI. Talqin va tadqiqotlar, 1(24).
5. Qosimbek o'g'li, P. J. (2023). JADID MAKTABI YANGI USUL MAKTABLARNING ROLI ASOS SOLINISHI. Journal of new century innovations, 29(4), 125-129.
6. Qosimbek o'g'li, P. J. (2023). JADIDCHILIKNING, JAMIYAT HUQUQIY O 'ZLIGINI SHAKILLANTIRISHGA YO 'NALTIRILGAN TARG 'IBOT MAQSAD MUDDAOSI. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 20(7), 39-42.

³ Alimov X.R, Mahmudov A.A, Ismoilov N.T. Ma'muriy huquq. Darslik 2-nashr.-T O'zR IIV akademiyasi, 2003-367 b.